



INGLIZ ERTAK MATNLARIDA "YAXSHI" VA "YOMON" TILAK- ISTAKLARNING QANDAY IFODALANISHI

Arifjanova Shoira Abduraxmonova

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti (AIFU)

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs magistr talabasi

Kurbonova Gulsara Sodiqovna

Ilmiy maslahatchi: f.f.d., dos (DSc)

O'zMU fransuz filologiyasi kafedrası

Annotatsiya: Ingliz xalq ertaklarida nutqiy etiket birliklari qahramonlarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy tamoyillarini aks ettiradi. Ushbu maqolada ertak matnlarida "yaxshi" va "yomon" tilak-istaklarning qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Yaxshi niyat va duo shaklidagi tilaklar qahramonlarga muvaffaqiyat va baxt keltirsa, yomon tilaklar salbiy oqibatlarga olib kelishi yoki qahramonlarga zarar yetkazishi mumkin. Tadqiqot natijalari ingliz ertaklaridagi nutqiy etiket birliklarining semantik va pragmatik jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, ingliz xalq ertaklari, tilak-istak, yaxshi va yomon niyat, pragmatik tahlil, semantik xususiyatlar

Ertak bu xalq og'zaki ijodining qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri sanalib, unda xalqning orzu-umidlari, axloqiy qarashlari va dunyo tasavvuri aks etadi. Odatda, ertaklarda sehrli voqealar, g'ayritabiiy qahramonlar va sarguzashtlarga boy voqea hodisali hikoyalar tasvirlanadi. Ushbu janr bolalar va kattalar orasida ham mashhurligi bilan ajralib



turadi. Ertaklarning asosiy xususiyatlari shundan iboratki, unda kattalarni hamda yosh avlodni yaxshilikka chorlaydigan, mehrlil- muruvvatli, sofdil inson bo'lishga undaydi. Ingliz ertaklari misolida ertaklarning xususiyatlarini Josef Jakobs (Joseph Jacobs) "Ingliz xalq ertaklari" (English Fairy Tales) nomli to'plamida asosiy xususiyatlarini o'rgangan.¹ Uning ishlari ingliz ertaklari strukturasi tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega va ingliz olimlaridan Aarne, T., & Thompson, S. o'zlarining The Types of the Folktale: A Classification and Bibliography. Helsinki² nomli risolasida ularning turlari va klassifikatsiyasiga to'xtalib o'tganva shu asosda biz ertaklarni xususiyatlariga qarab turlashimiz mumkin:

1. Xalq og'zaki ijodi mahsuli. Bunda ertaklar og'zaki tarzda avlodlardan avlodga yetkazilib berilgan.
2. Sehr va mo'jizalar. Ular orasida jodugarlar, sehrli buyumlar va hayvonlarning inson kabi gaplasha olishi kabi holatlar uchratishimiz mumkin. Bu kabi ertaklar sirli ko'rinishlari bilan kitobxonni jalb qila oladi.
3. Yaxshilik va yomonlik to'qnashuvi. Ushbu ertaklarning asosiy mavzularidan biri sifatida ko'pincha yaxshilik ilgari suriladi. Bunday ertaklarda yaxshilik doim g'alaba qozonadi.
4. Qahramonning sinovlardan o'tishi. Ularda bosh qahramon o'z aql-zakovati va jasurligi bilan qiyinchiliklarni yengib, maqsadiga yetib boradi va xalq olqishiga sazovar bo'ladi.
5. Axloqiy tarbiya. Bu kabi ertaklar odatda yaxshi xulq-atvorni targ'ib qilib, yaxshilik, adolat, mehnatsevarlikni yuksak qadriyat sifatida ko'rsatadi hamda kitobxonni ham shu kabi bo'lishga chorlaydi.

Ertaklar har bir xalqning madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi. Ingliz ertaklarida nutqiy etiket birliklari muhim sanaladi. U qahramonlarning o'zaro

¹ Joseph Jacobs "English Fairy Tales". 1980.

² Aarne, T., & Thompson, S. The Types of the Folktale: A Classification and Bibliography. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia, 1961.



munosabatlari, hurmat, minnatdorchilik, so‘rov, salomlashuv va xayrlashuv shakllarida namoyon bo‘ladi. Ingliz ertaklarida nutqiy etiket birliklari qahramonlarning xatti-harakatlari va nutq madaniyatini namoyon etadi. Ulardagi morfologik va sintaktik birliklar ham chambarchas bog‘liklikka ega. Ingliz yozuvchisi buni o‘z tadqiqot ishida yoritishga harakat qilgan.³ Shu o‘rinda, "Oppoqoy va yetti gnom" (Snow White and the Seven Dwarfs), "Uyqudagi malika" (Sleeping Beauty) va "Jek va loviya poyasi" (Jack and the Beanstalk) kabi ertaklarda yaxshi va yomon tilak-istaklarning ifodalanishi juda muhim rol o‘ynaydi. Bu ertaklar har xil versiyada yozilgan, undan ba’zi misollarni keltirib o‘tish joizdir. "Oppoqoy va yetti gnom" ertagida nutqiy etiket birliklari yaxshi va yomon tilaklarga ajralishini uchratamiz. Wanda Gág tomonidan yozilgan "Snow White and the Seven Dwarfs" ertagida quyidagicha misol bilan ifodalangan:

Malikaning Oppoqoy tug‘ilishidan oldin aytgan tilagi:

"I wish I had a child as white as snow, as red as blood, and as black as ebony." - "Qor kabi oppoq, qon kabi qizil va eben daraxti kabi qora sochli farzandim bo‘lsa edi." Malika chiroyli, beg‘ubor va pokiza qiz farzandga ega bo‘lishni istaydi.

Ovchining Oppoqoyga rahmi kelishida ham yaxshi tilak- istak aytiladi:

"But as to all the rest—the Prince and his Princess Snow White, and the seven little dwarfs—they all lived happily ever after." – "Siz umr bo‘yi baxtli yashang!"⁴

"Oh, dear child, may you be safe and sound!" – "Oh, aziz bolam, sog‘-omon bo‘ling!"⁵

"We **wish** you joy and health!" – "Sizga quvonch va salomatlik tilaymiz!"⁶

³ Propp, V. Morphology of the Folktale. Austin: - University of Texas Press, 1968.

⁴ Wanda Gág "Snow White and the Seven Dwarfs". New York. - Coward- McCann Books, republished 2014. – B. 43

⁵ Wanda Gág "Snow White and the Seven Dwarfs". New York. - Coward- McCann Books, 1938. – B. 25

⁶ Grimm, Jacob; Grimm, Wilhelm The Original Folk and Fairy Tales of the Brothers Grimm: the complete first edition. Princeton: Princeton University Press. ISBN 978-0-691-16059-7. OCLC 879662315., 2014. – P. 184-85



Yetti gnomlar Oppoqoyga mehr bilan munosabatda bo‘lib, unga yaxshi tilaklar bildiradilar. Shu o‘rinda yaxshi tilaklar bilan bir qatorda yomon tilak- istak bildirilgan holatlarni ham ertaklarda uchratish mumkin.

Yovuz qirolichaning hasadi berilgan misol:

"No one shall be more beautiful than me!"- "Mendan go‘zal hech kim bo‘lmasligi kerak!" U o‘zining eng chiroyli ayol bo‘lib qolishini xohlaydi va undan chiroyli bo‘lganlarni yo‘q qilishni niyat qiladi.

Qirolichaning zaharlangan olmani berayotgandagi la’nati so‘zlarida ham yomonlik bildirilgan tilak- istaklarni uchratish mumkin:

"Now, take a bite, my dear, and all your dreams will come true..."- "Mana, azizim, bir luqma olgin, shunda barcha orzularing ushaladi..." U Oppoqoyni aldab, uni abadiy uyquga ketkazish niyatida bo‘ladi.

"May misfortune be upon you!" – “Sizga baxtsizlik tilayman!”

"You shall fall into a deep sleep forever!" – “Sen abadiy chuqur uyquga ketasan!”⁷

Xunuk, makkor qirolicha hasad va yovuz niyat bilan Oppoqoyga zarar yetkazish uchun la’natlaydi.

“Uyqudagi malika” ertagida nutqiy etiket birliklari sifatida yaxshi va yomon tilak- istaklar bildirilgan jummalarni keltirish mumkin.

"May your beauty, wisdom, and kindness be eternal."- "Sening go‘zalliging, donoliging va mehribonliging abadiy bo‘lsin." Ushbu tilak malikaning hayotida doimiy go‘zallik, dono fikr va mehribonlikka ega bo‘lishini istaydi.

"I wish you a life filled with peace, serenity, and joy."- "Senga tinch, osoyishta va baxtiyor hayot tilayman." Bu tilak malikaning hayotida tinchlik, osoyishtalik va haqiqiy baxtni kafolatlashga qaratilgan.

⁷ Grimm, Jacob; Grimm, Wilhelm The Original Folk and Fairy Tales of the Brothers Grimm: the complete first edition. Princeton: Princeton University Press. ISBN 978-0-691-16059-7. OCLC 879662315., 2014. – P. 149-162



"May you be blessed with beauty and grace!" – "Siz go'zallik va nafislik bilan barakali bo'ling!"

"I shall pour venom into your heart, so that you shall never experience true love and affection."- "Qalbga zahar sochaman, shunda hech qachon chin sevgi va mehr his etmaysan!" Bu tilak malikaning yuragida haqiqiy sevgi va mehr hislarining paydo bo'lishini imkonsiz qiladi, shuningdek, uning hayotida doimiy sovuqlik va iztirobi keltirib chiqaradi.

"Uyqudagi malika" ertagida ijobiy tilaklar malikaning abadiy go'zalligi, donoligi va baxtiga qaratilgan bo'lsa, salbiy tilaklar esa uning hayotiga dahshatli fojialarni olib kelishi mumkin. Ertak davomida, yaxshi tilaklar va yomon niyatlar o'rtasidagi kurash yakuniy g'alaba va yaxshilikning ustunligini ko'rsatadi.

"Jek va loviya poyasi" ertagida nutqiy etiket birliklarida yaxshi va yomon tilak-istaklarni quyidagi misolda uchratish mumkin.

"I hope you will be brave and strong!" – "Umid qilamanki, siz jasur va kuchli bo'lasiz!"

Jackning o'z hayotini, oilasining farovonligini yaxshilash istagi ertakning asosiy ijobiy motivatsiyasini tashkil etadi. U qashshoqlikdan chiqib, boylik va baxtga erishishni orzu qiladi. Shu bilan birga, uning jasorati va qobiliyati orqali qiyinchiliklarga bardosh berib, yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritishi ifodalanadi.

Xulosa. Ingliz xalq ertaklarida nutqiy etiket birliklari nafaqat qahramonlarning fe'l-atvorini ifodalaydi, balki ertaklarning axloqiy yo'nalishini ham belgilaydi. Yaxshi tilak va niyatlar qahramonlarga omad, baxt va ezgulik olib kelsa, yomon niyat va tilaklar salbiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Ertak matnlaridagi til birliklarini o'rganish ularning madaniy va lingvistik jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aarne, T., & Thompson, S. (1961). The Types of the Folktale: A Classification and Bibliography. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia.
2. Joseph Jacobs "English Fairy Tales". 1980.
3. Propp, V. Morphology of the Folktale. Austin: - University of Texas Press, 1968.
4. Wanda Gág "Snow White and the Seven Dwarfs". New York. –Coward- McCann Books, republished 2014.
5. Wanda Gág "Snow White and the Seven Dwarfs". New York. –Coward- McCann Books, 1938.
6. Grimm, Jacob; Grimm, Wilhelm The Original Folk and Fairy Tales of the Brothers Grimm: the complete first edition. Princeton: Princeton University Press. ISBN 978-0-691-16059-7. OCLC 879662315., 2014. – P. 184-85